

NA'MATAK MEVASINING IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA
POLIOKSIDANTLIK XOSSASI.

Turatov Shuxrat Xudoyberdi o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash ishi fakulteti 106-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Kiyamova Dilfuza Sharifovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrası.

Ishning maqsadi: Na'matak mevasining shifobaxsh xususiyatlaridan inson organizmidagi kasalliklarni davolashda va immunitetni mustahkamlashda to'g'ri foydalanishni o'rganish.

Muammoning dolzarbligi: Hozirgi kunda inson organizmining immuniteti pasayib ketganligi sababli ko'p kasallik holatlari uchramoqda. Bunga sabab vitamin va ba'zi boshqa moddalar va biogen elementlar yetishmasligi. Shuning uchun biz immunitetni tiklash yoki saqlash uchun na'matak mevasining shifobaxshlik xususiyatlaridan foydalanishimiz kerak.

Tadqiqot natijalari: Tekshiruv ishlarining sezilarli qismi barchani davolash uchun statsionar bo'sh joylar yetarli bo'lmagani uchun uy sharoitida qo'llashga asoslangan. Na'matak mevasi tarkibida vitamin C, V2, K1, R, 12-18 mg% karotin, 18% atrofida qandlar, 4-5% oshlovchi moddalar, 2% atrofida limon va olma kislotalari, 3,7% pektin va boshqa moddalar bo'ladi. Uning tarkibidagi C ekzotik limon va apelsinga qaraganda 50 barobar, qora smorodina tarkibidagidan 10 barobar ko'proq. Bundan tashqari kalsiy (Ca), magniy (Mg), kaliy (K), natriy (Na) elementlari mavjud. Shularni bilgan holda na'matak mevasidan uy sharoitida damlama tayyorlash va iste'mol qilish mumkin. Yana na'matak mevasidan tayyorlangan na'matak ekstrakti (na'matak moyi)dan foydalanish mumkin.

Na'matak damlamasi tayyorlash uchun termosga uning 3 osh qoshiq quruq mevalari va bir litr qaynoq suv solinadi. Aralashma 12 soat davomida tindiriladi. Tayyor damlama ovqatdan 30-40 daqiqa oldin qabul qilinadi. Damlama tayyorlashdan oldin mevalarni yaxshilab yuvib, maydalash tavsiya etiladi. Bu holda vosita tezroq tayyor bo'ladi. Unga shakar qo'shish tavsiya etilmaydi, uning o'rniga asal qo'shish vositaning foydali xususiyatlarini yanada oshiradi.

Na'matak mevasidan karotolin preparati va na'matak moyi tayyorlanadi. Karotolin mevaning yumshoq-etli qismining moyli ekstrakti (tarkibida asosan karotinoidlar hamda tokoferollar, to'yinmagan yog' kislotalar va boshqa moddalar saqlanadi) bo'lib, tropik yaralar, ekzema, eritrodermitning ba'zi turlari va yaralangan shilliq pardalarni davolash uchun surtiladi yoki dokaga shimdirilib, shikastlangan joyga qo'yiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki na'matak mevasi inson immunitetini mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir. Na'matak mevasidan foydalanish orqali odamlar salomatligini saqlashi va yanada kuchga to'lishi mumkin.

Shuningdek ko'p kasalliklar (shamollash, yo'tal, sariq kasalligi, gripp, kamqonlik)ni davolashda va oldini olishda na'matak mevasidan foydalanishimiz mumkin.